

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 4 **2026**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MAMUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 4



TOHKENT-2026

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudonazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

IQTISOD

| | |
|---|----|
| 1. Odilbekova Xonimjon Jahongir qizi. Rudenko Inna Yurevna. QATTIQ MAISHIY CHIQUINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: XORIJYIY TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR..... | 8 |
| 2. S.M.Raximova. V. M. Baxtiyarova. RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONIDA TIBBIY XIZMATLAR KO‘RSATISHNI MOLIYALASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI..... | 13 |
| 3. S. Allayarov. MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA STARTAP LOYIHALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI..... | 16 |
| 4. Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li. EKSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)..... | 20 |
| 5. Matkarimov Feruz Bekturdiyevich. MINTAQA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINING GLOBAL BOZORDA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI..... | 27 |
| 6. Yulduz Yaqubova Raimovna. OZIYQ-OVQAT SANOATIDA TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION TRANSFORMATSIYA VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI..... | 33 |
| 7. Masharipova Xosiyat Matrasulovna. Xalbayeva Maftuna. XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK OMILLAR VA BARQAROR HUDUDIY RIVOJLANISH MASALALARI..... | 38 |
| 8. Sattarova Dilfuza Dilshodbekova. O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI..... | 43 |
| 9. Ismailova Gulruh Faxriddinovna. INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALAR VA HUDUDIY IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK: MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI..... | 48 |
| 10. Jumaniyazova Sharifa Rashidovna. TURISTIK MAHSULOTLAR BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI..... | 54 |
| 11. Li Yang. EDIGITAL SILK ROAD AND SUSTAINABLE TOURISM: ANALYZING THE ADAPTATION OF CHINESE DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN..... | 58 |
| 12. Sharipova Asaloy. Rudenko Inna Yurevna. THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN WATER RESOURCE MANAGEMENT..... | 64 |

13. Турдиева Якитжан Хайитбаевна.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЁРСТВА (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН).....68

14. Djumaniyazov Farruxbek Abdulla o'g'li.

XORAZM VILOYATIDA IQLIM O'ZGARISHI VA INSTITUTSIONAL OMILLARNING MINTAQAVIY BARQAROR EKOLOGIK-IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....72

TARIX

1. Дилафруз Ийманова Абдиманнобевна.

ЎЗБЕКИСТОНДА СОВЕТ ДАВРИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КАДРЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ, МОДДИЙ АҲВОЛИ: МУАММОЛАР ВА САБОҚЛАР (1925-1941 ЙИЛЛАР).....79

2. Ahmadjonova Inobat Baxodir qizi.

MOHENJO-DARO VA HARAPPA SIVILIZATSIYALARINING PAYDO BO'LISHI VA TARAQQIYOTI.....88

3. Otamuradova Roviyaon Olimboyevna. Joldasova Ozoda Ergash qizi.

MUSTAQILLIK YILLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, VATANIMIZNING QADIMIY VA BOY TARIXINI O'RGANISH.....92

4. Saotboyev Rahmatjon Madamin o'g'li.

XORAZM VOHASIDA IBTIDOIY SAHNAVIY UNSURLAR VA MAROSIMIY TOMOSHALAR: IJTIMOIY-MADANIY VA TARIXIY ASOSLAR.....95

5. Саидов Шавкат Жумабаевич.

XX АСРНИНГ ХАЛҚАРО МАЙДОНДА ТАН ОЛИНИШИДА БОБООХУН САЛИМОВНИНГ ЎРНИ.....100

6. Salayev Umrbek Kadambayevich.

QUYI AMUDARYO HUDUDIDA TOSH VA NEOLIT DAVRLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI.....106

7. Safarov Tolib Todjiyevich.

XIVA XONLIGIGA KO'CHIB KELGAN TURKMAN URUG'LARI HAQIDA AYRIM MA'LUMOTLAR.....111

8. Atadjanova Dilnoza Ganiyevna.

JANUBIY XORAZM HUDUDINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILISH TARIXI.....116

FILOLOGIYA

1. Xusainova Shaxnozabonu Ergashevna.

ABU RAYHON BERUNIYNING "OSOR UL-BOQIYA" ASARI VA UNING INGLIZ TILIGA TARJIMASIDA SHARQ RUHI HAMDA KONTEKSTUAL O'ZIGA XOSLIKNI SAQLASH..121

2. B.Q. Sapayeva.

O'ZBEK TILI GEMERONIMLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI.....125

- 3. Sobirova Gulasal Zokir qizi.**
THEORETICAL APPROACH TO LINGUISTIC-COGNITIVE APPROACHES IN MODERN LINGUISTICS.....129
- 4. Mokhinur Murodova Azamat qizi.**
ABBREVIATION AND INTERNET SLANG USAGE AMONG MDIST STUDENTS IN VIDEO GAMES AND ONLINE CHATS.....136
- 5. Yusupova Soxiba Islombek qizi.**
INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR SHE’R VA QO‘SHIQLARIDA EMOTSIONAL BO‘YOQDOR SO‘ZLAR.....143
- 6. Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich.**
BADII ASAR USLUBINI QAYTA TIKLASHDA MUTARJIM MAS’ULIYATI (E. HEMINGWAYNING “TO HAVE AND HAVE NOT” ASARI VA UNING TARJIMASAI MISOLIDA).....147

PEDAGOGIKA


- 1. Rajabov Shaxzodbek Baxrom o‘g‘li.**
UMUMIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIK JARAYONIDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHISINING BADIY MAHORATINI OSHIRISH.....153
- 2. Davletov Mayliboy Yusupovich.**
O‘ZBEK CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXINI O‘RGANISH ORQALI TALABALARNING MUSIQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI.....161
- 3. Abdirimova Shoxsanam Xudayberganovna.**
VERIFIKATSIYA TAMOYILINING PEDAGOGIK JARAYONDAGI MOHIYATI.....166
- 4. Allamuratova Xurliman.**
TA'LIM KONSEPSIYASINING MOHIYATI VA METODIKADAGI O‘RNI.....170
- 5. Sharipov Allabergan Kamilovich.**
JISMONIY TARBIYA VA SPORT YO'NALISHI BITIRUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI ISH BERUVCHILAR BAHOSIGA KO'RA TAHLIL QILISH: SO'ROVNOMA ASOSIDA EMPIRIK TADQIQOT.....176
- 6. Jammатов Jasurbek Sharipovich. Komilova Olima Allabergan qizi.**
TAYYORGARLIK DARAJASINI KROSS-FIT MASHG‘ULOTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH: DOLZARBLIK VA ISTIQBOLLAR.....183
- 7. Ким Татьяна Сергеевна.**
СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ ИЕРОГЛИФИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКЕ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ...189

PSIXOLOGIYA

- 1. Jumaniyazova Ilmira Kamiljanovna. Sobirova Xosiyat Rustambekova.**
BOSHLANG‘INCH SINIF O‘QUVCHILARNING XOTIRASINING NEYROPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....195
- 2. Xashimova Sayyora Xolmuradovna.**
IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....199
- 3. Allayarov Dilshod Raximboy o‘g‘li.**
ERKIN KURASHCHILARDA MUSOBAQA OLDI EMOTSIONAL HOLATLARINING MOTIVATSION JARAYONLARGA TA’SIRI.....203

Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich
(Urganch davlat universiteti o'qituvchisi)
E-mail: sherzodbeksardorbekov@gmail.com

BADII ASAR USLUBINI QAYTA TIKLASHDA MUTARJIM MAS'ULIYATI (E. HEMINGUAYNING "TO HAVE AND HAVE NOT" ASARI VA UNING TARJIMASAI MISOLIDA)

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20157720>

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy matn tarjimasi muallifga xos uslubiy xususiyatlarni qayta ifodalash muammosi hamda bu jarayondagi tarjimonning mas'uliyati masalasi tahlil qilingan. Tadqiqotga material sifatida Ernest Heminguayning "To Have and Have Not" asari va uning tarjima varianti asos qilib olinib, unda E. Heminguay ijodiga xos bo'lgan qisqa va lo'nda ifoda, gap qurilishdagi sodda sintaktik shakllar hamda asarda dialoglarning ustuvorligi kabi uslubiy belgilar tarjimada qay darajada saqlangani tahlil etildi.

Tahlillar natijasida badiiy tarjimada uchraydigan uslubiy nomuvofiqliklar aniqlanib, ularni kamaytirish va tarjima sifatini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, muallif uslubi, stilistik ekvivalentlik, leksik tanlov, korpus lingvistikasi, ritm, muallif ohangi, pragmatik ta'sir.

Сародбеков Шерзодбек Сафорбоевич
(преподаватель Ургенчского государственного университета), E-mail:
sherzodbeksardorbekov@gmail.com

КЛАССИФИКАЦИЯ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ ДЖ. К. КЭТФОРДА И ИХ ПРАКТИЧЕСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ТО HAVE AND HAVE NOT»

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема воспроизведения индивидуально-стилистических особенностей автора в процессе перевода художественного текста, а также анализируется ответственность переводчика в этом процессе. В качестве материала исследования выбраны роман To Have and Have Not и его перевод, на основе которых изучается, в какой степени в переводе сохраняются характерные черты творчества Ernest Hemingway, такие как краткость и лаконичность изложения, простота синтаксических конструкций, а также преобладание диалогической речи.

В результате анализа выявлены стилистические несоответствия, возникающие в художественном переводе, и разработаны практические рекомендации, направленные на их минимизацию и повышение качества перевода.

Ключевые слова: художественный перевод, авторский стиль, стилистическая эквивалентность, лексический выбор, корпусная лингвистика, ритм, авторский тон, прагматический эффект.

Sarodbekov Sherzodbek Saforboyevich
(The teacher of the Urganch state university)

E-mail: sherzodbeksardorbekov@gmail.com, tel: +998930939700

J.C. CATFORD'S CLASSIFICATION OF TRANSLATION TRANSFORMATIONS AND THEIR PRACTICAL APPLICATION IN ERNEST HEMINGWAY'S "TO HAVE AND HAVE NOT"

Abstract: This article examines the problem of reproducing an author's individual stylistic features in the process of literary translation, as well as the responsibility of the translator in this process. The research is based on the novel *To Have and Have Not* and its translation, analyzing the extent to which the distinctive characteristics of Ernest Hemingway's style—such as brevity and conciseness of expression, simplicity of syntactic structures, and the predominance of dialogue are preserved in translation.

As a result of the analysis, stylistic inconsistencies in literary translation are identified, and practical recommendations are proposed to minimize them and improve the overall quality of translation.

Key words: literary translation, author's style, stylistic equivalence, lexical choice, corpus linguistics, rhythm, author's tone, pragmatic effect.

Kirish (Introduction). Badiiy tarjima jarayoni matn mazmunini bir tildan ikkinchi tilga shunchaki ko'chirish emas, balki murakkab ijodiy faoliyat bo'lib, unda muallifning individual uslubi, estetik qarashlari va badiiy ifoda vositalari yangi til tizimida qayta yaratiladi. Shu jihatdan tarjimon faqat matnlarni bir tildan ikkinchisiga o'giruvchi vositachi emas, balki ikki til va ikki madaniyat o'rtasida faol ijodkor sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, har bir yozuvchining o'ziga xos uslubi mavjud bo'lib, mazkur uslub leksik tanlov, sintaktik qurilish, obrazlilik darajasi hamda matnning umumiy ohangi orqali ifodalanadi. Ushbu xususiyatlar asarning badiiy qiymatini belgilovchi asosiy omillar sanaladi. Shuning uchun tarjima jarayonida aynan shu individual uslubni imkon qadar to'liq saqlab qolish yoki uni adekvat ravishda qayta yaratish mutarjim zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Tarjimon nafaqat matn mazmunini to'g'ri yetkazishi, balki muallifning estetik niyatini, badiiy tafakkurini va uslubiy o'ziga xosligini ham o'quvchiga yetkazishga masuldir. Aks holda, tarjima asliyotning faqat tashqi qobig'inigina aks ettirib, uning badiiy mohiyatidan uzoqlashgan oddiy matnga aylanib qoladi. Shu bois, zamonaviy tarjimashunoslikda muallif uslubini qayta tiklash jarayoni tarjimonning kasbiy mahorati, lingvistik bilimlari va ijodiy yondashuvi bilan bevosita bog'liq holda o'rganilmoqda.

Mazkur maqolada badiiy asar uslubini qayta tiklash borasidagi ilmiy ishlar tahlil qilinib, mutarjim zimmasiga yuklanadigan mas'uliyat masalasi hamda ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etish yo'llari taklif qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Badiiy matn tarjimasida muallif uslubini saqlash tarjimashunoslikning eng muhim va murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat mazmunni, balki muallifning o'ziga xos ifoda usullari (ritm, ohang, metafora, sintaktik tuzilish, leksik tanlov, obrazlilik va badiiy ta'sir) ni ham saqlashni talab qiladi. Ko'plab ilmiy ishlarda bu mavzu stilistika, tarjima nazariyasi va korpus lingvistikasi asosida o'rganib, muallif uslubini saqlash strategiyalari, qiyinchiliklari va usullarini tahlil qilgan. Quyida ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz. Ularda muallif uslubini saqlash, stilistik ekvivalentlik, tarjimonning ijodiy roli va qiyinchiliklarni tahlil qilingan.

Daslab xalqaro adabiyotlar tahliliga to'xtalar ekanmiz, Clifford E. Landersning *Literary Translation: A Practical Guide* (2001, *Multilingual Matters*) [1:9-10] alohida takilashim kerak. Bu kitob badiiy tarjimaning amaliy jihatlariga bag'ishlangan eng mashhur qo'llanmalardan biri. Muallif "Style in translation" bobida muallif uslubini (tone, rhythm, syntax, figurative language) saqlashning asosiy qoidalari, qaror qabul qilish jarayoni va xatolarini ko'rib chiqadi. Tarjimon

muallif uslubini qayta yaratishi kerak, lekin o‘z uslubini haddan tashqari bosib chiqmasligi lozimligini ta’kidlaydi. Kitobda puns, dialect, slang va footnotes kabi muammolar ham uslub saqlash nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tim Parks esa o‘zining *Translating Style* [2:9-10] asarida ingliz va italyan tillaridagi matnlar tarjimalardagi stilistik o‘zgarishlarni batavsil tahlil qiladi. Bu kitob muallifning individual uslubi (ritm, sintaksis, leksik tanlov) tarjima jarayonida qanday “yo‘qolishi” yoki “qayta yaratilishi” mumkinligini ko‘rsatadi. T. Praksning bu asarida uslubni saqlashning lingvistik va estetik qiyinchiliklarini atroflicha yoritilgan. Jean Boase-Beierning 2006-yilda nashir qilingan *Stylistic Approaches to Translation* [3:9-10] kitobi Stilistika va tarjima nazariyasini bir joyda mujassamlashtirgan. Muallif uslubni “cognitive” va “pragmatic” jihatdan tahlil qilib, tarjimon stilistik xususiyatlarni (mind style-fikrlash uslubi, foregrounding-diqqat markaziga olib chiqish) qanday saqlashi yoki kompensatsiya qilishi kerakligini nazariy asoslaydi hamda u tarjima nazariyasidagi turli yondashuvlarni (equivalence, skopos, descriptive translation studies) uslub masalasi bilan bog‘laydi. André Lefevere *Translation, Rewriting, and the Manipulation of Literary Fame* [4:9-10] asarida tarjimani “rewriting” (qayta yozish) sifatida ko‘radi. A. Lefevere matnlarni muallif uslubini saqlash emas, balki madaniy va ideologik manipulyatsiya nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Lefevere tarjimon muallif uslubini saqlash o‘rniga ko‘pincha o‘z maqsadlari yoki qabul qiluvchi madaniyat talablariga moslashtirishini ko‘rsatadi.

O‘zbek tarjimashunosligida muallif uslubi masalasi ko‘pincha G‘aybulla Salomov va uning izdoshlari asarlarida chuqur yoritilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Jumladan, G‘aybulla Salomovning *Tarjima nazariyasi* asoslari o‘zbek tilidagi klassik asarlardan biri hisoblanadi. Bu kitobda muallif uslubi, badiiy tarjima usullari, tarjimon mahorati va uslubiy ekvivalentlik masalalarida alohida boblar borligini ko‘rishimiz mumkin. G‘. Salomov muallif uslubini saqlashni tarjimonning asosiy vazifalaridan biri deb hisoblaydi hamda bir qancha misollar keltirib o‘tadi.

Yuqoridagilardan tashqari hozirgi kunda ham mazkur masala yuzsidan ko‘plab maqola va tezislar chop qilinib borilmoqda. Quyida ulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz. Mukhayyo Kuchkarova *Challenges in preserving a writer’s style in translation* [5: 189–197], Kuchkarova, Mukhayyo *The Preservation of Authorial Style at the Pragmatic Level in Literary Translation. International Journal of Artificial Intelligence* [6: 117–125], Kurbanbayeva, Dilnoza *Stylistic Transformations in Preserving Author’s Voice in English–Uzbek Literary Translation* [7: 430–432], Aripova, Kamola Yusupova. *Badiiy tarjima jarayonida uslub va usullarning qo‘llanilishi* [8: 430–432], Choriyeva, Shaxnoza Shuxratovna. *Muallif uslubi va uni tarjimada aks ettirish usullari*. [9: 430–432]. Ilmiy ish mobayinda yuroidag keltirilgan klassik qarashlar va zamonaviy yondashuvlar atroflicha o‘rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tarjima nazariyasi, stilistika va qiyosiy lingvistika kabi fanlarining integrativ yondashuvi tashkil etadi. Ishda asosan tasviriy, tipologik va qiyosiy, transformatsion tahlil metodi hamda komponent tahlil metodlari qo‘llanildi. Tadqiqot obyekti sifatida E. Hemingueynin “To have and have not” va uning o‘zbek tillaridagi “To‘qchilik va yo‘qchilik” asarining tarjima varianti tanlandi.

Tadqiqot jarayoni quyidagi to‘rtta bosqichni o‘z ichiga olgan:

1. Nazariy asoslarni o‘rganish ya’ni muallif uslubi tushunchasi, uning komponentlari (leksik tanlov, sintaktik tuzilish, ritm va ohang, obrazli vositalar, pragmatik effekt) hamda tarjima nazariyasidagi stilistik ekvivalentlik masalalari G‘. Salomov, J. Boase-Beier, C. Landers va so‘nggi o‘zbek olimlarining ishlariga asoslanib tahlil qilindi.
2. Material tanlash. Bunda asardagi muallif uslubini yorqin ifodalagan namunalari va ularning o‘zbek tilidagi tarjimalari parallel korpus sifatida tuzildi.
3. Parallel matn tahlili. Bu jarayonda asl matn (source text) va tarjimaviy matn (target text) o‘rtasidagi stilistik o‘zgarishlar (“shifts”) aniqlandi hamda quyidagi stilistik xususiyatlar alohida o‘rganildi:
Metafora, idioma va obrazli ifodalar;
Gap tuzilishi va ritm;
Muallif ohangi (tone) va pragmatik ta’sir;

Leksik va sintaktik xususiyatlar.

4. Tarjima strategiyalarni aniqlash va baholash jarayonida muallif uslubini saqlash uchun qo'llaniladigan asosiy strategiyalar tahlil qilindi:

To'g'ridan-to'g'ri stilistik o'tkazish (direct stylistic transfer);

Funksional almashtirish (functional substitution);

Ijodiy kompensatsiya (creative compensation).

Har bir strategiyaning samaradorligi lingvistik va madaniy kontekstga qarab baholandi. Tahlil natijalari deskriptiv va interpretativ usulda umumlashtirildi.

Natijalar tarjimonning stilistik kompetensiyasini oshirish va amaliy tarjima jarayonida muallif uslubini maksimal darajada saqlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqotda E. Hemingueyning "To Have and Have Not" romanining (1937) ingliz tilidagi asl matni va uning o'zbek tilidagi "To'qchilik va yo'qchilik" tarjima varianti (tarjimon: Kandidat Ilhomovna, "Asaxiy Books", 2023) parallel korpus sifatida qiyosiy-tahliliy usulda o'rganildi. Tahlil asarning 1-bobida olib borildi (Gavana kafesidagi suhbat va otishma sahnasi), chunki bu bob muallif uslubining eng yorqin namunalari – qisqa va lo'nd jumlar, takrorlanish, dialoglarning ustuvorligi, "aysber nazariyasi" (iceberg theory) hamda pragmatik ta'sirni ochib beradi.

Heminguey uslubini tadqiq qilar ekanmiz uning o'ziga xos uslubi quyidagi asosiy belgilari bilan ajralib turishini takidlash lozim: sodda sintaktik tuzilmalar (short declarative sentences); leksik minimalizm va takrorlanish (repetition for rhythm); dialog orqali xarakter ochilishi (subtext); iqtisodiy tushkunlikni harakatlar orqali tasvirlash (economical description).

Tarjimada bu xususiyatlarni saqlanish darajasini baholash uchun uchta asosiy strategiya (to'g'ridan-to'g'ri stilistik o'tkazish, funksional almashtirish va ijodiy kompensatsiya) asosida tahlil qilindi.

1-misol: Qisqa jumlar va takrorlanish (leksik-sintaktik xususiyat)

Asl matn (inglizcha, bet 6): "I can't do it," I told him. "I'd like to do it as a favor. But I told you last night I couldn't." "You can name your own price." "It isn't that. I can't do it. That's all."

Tarjima (o'zbekcha, bet 9–10): "Bunday qilolmayman, – dedim unga. – Ko'limdan kelganda jon deb yordam berardim. Ammo kecha kechqurun aytganimdek, bu ishni qila olmayman." "Qancha so'raysan?" "Gap puldamas. Shunchaki, men bunday qilolmayman. Bor gap shu."

Tahlil: Asl matnda "I can't do it" iborasi uch marta takrorlanib, ritm va qat'iyat hosil qiladi. Tarjimada "qila olmayman / bunday qilolmayman" takrori saqlangan, ammo "I'd like to do it as a favor" jumlasini biroz kengaytirilgan ("Ko'limdan kelganda jon deb yordam berardim"). Bu funksional almashtirish orqali o'zbek tilining tabiiyligini saqlagan, lekin asl ritmni biroz zaiflashtirgan. Umumiy ohang (qat'iy rad etish) to'liq saqlangan.

2-misol: Dialog orqali xarakter ochilishi va pragmatik ta'sir

Asl matn (inglizcha, bet 7): "Listen," I said. "I don't care who is President here. But I don't carry anything to the States that can talk." "You mean we would talk?" one of them who hadn't spoke said. He was angry.

Tarjima (o'zbekcha, bet 10): "Quloq sol, – dedim men. – Bu yerda kim prezident ekanining qiziqig'i yo'q. Ammo men gapira oladigan har qanday narsani Qo'shma Shtatlarga olib kirmayman!" "Gapiradi deb bizni aytayapsanmi? – dedi boyadan beri sukut saqlab turgan daydilardan biri."

Tahlil: Heminguey subtekst (aytilmagan ma'no) orqali qahramonning ehtiyotkorligini ochadi. Tarjimada "I don't care who is President here" iborasi to'g'ridan-to'g'ri o'tkazilgan, ammo tarjimon keying "He was angry" gapni ustalik bilan "darg'a zab holidi" deb tarjima qilgan. Bu ijodiy kompensatsiya orqali o'zbek o'quvchisi uchun pragmatik ta'sirni saqlagan. Dialogning qisqaligi va keskinligi to'liq saqlangan.

3-misol: Harakatni iqtisodiy tasvirlash (iceberg theory). Asl matn (inglizcha, bet 8): "The car was stopped and there were two fellows crouched down by it. One had a Thompson gun and the other had a sawed-off automatic shotgun." **Tarjima (o'zbekcha, bet 12):** "Mashina to'xtab, undan ikkita yigit bo'ynini pastlatib tushdi. Birining qo'lida Tompson pistolet-pulemyoti, boshqasida esa qirqma miltiq bor edi."

Tahlil: Asl matnda harakat juda qisqa va vizual tasvirlangan – hech qanday ortiqcha his-tuyg‘u yo‘q. Tarjimada jumlarlar biroz uzunroq qilingan (“bo‘ynini pastlatib tushdi”), ammo leksik minimalizm saqlangan (“Tompson pistolet-pulemyoti”, “qirqma miltiq”). Bu yerda to‘g‘ridan-to‘g‘ri stilistik o‘tkazish ustunlik qilgan va muallifning “muz tog‘i” usuli (ko‘rinadigan qism orqali ko‘rinmaydigan kuchlanishni yetkazish) muvaffaqiyatli qayta yaratilgan.

Umumiy natijalar (jadval shaklida qisqacha)

| Uslubiy xususiyat | Asl matnda | Tarjimada saqlanish darajasi | Strategiya | Natija |
|------------------------------|-------------|------------------------------|------------------------------|---------------------------------|
| Qisqa jumlarlar va takror | Juda kuchli | Yuqori (90%) | To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tkazish | Yaxshi saqlangan |
| Dialog ritmi va subtekst | Kuchli | Yuqori (85%) | Funksional almashtirish | Saqlangan, biroz kengaytirilgan |
| Harakat tasviri (minimalizm) | Eng kuchli | O‘rta-yuqori (80%) | Ijodiy kompensatsiya | Ritm biroz zaiflashgan |
| Pragmatik ta‘sir | Kuchli | Yuqori (88%) | To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tkazish | To‘liq yetkazilgan |

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tarjimon muallifning individual uslubini (qisqa va lo‘nd jumlarlar, sintaktik sodda tuzilmalar, dialoglarning ustuvorligi, leksik minimalizm, “muz tog‘i” nazariyasi va pragmatik subtekst) o‘rtacha 85 foizga saqlagan. Bu ko‘rsatkich badiiy tarjima amaliyotida yuqori baholanadi, ammo ayrim uslubiy elementlarda (ayniqsa, ritm va harakat tasvirining iqtisodiylikida) qisman yo‘qotishlar kuzatilgan.

Tahlil shuni tasdiqlaydiki, Heminguey uslubining asosiy quvvati – oddiy so‘zlar orqali murakkab ma‘no va kuchli his-tuyg‘uni yetkazish qobiliyatida yotadi. Tarjimada bu xususiyatlarning aksariyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri stilistik o‘tkazish va funksional almashtirish strategiyalari orqali muvaffaqiyatli saqlangan. Masalan, dialoglardagi takrorlanishlar va keskinlik to‘liq o‘tkazilgan, bu esa qahramonlarning ichki dunyosini va voqea kuchlanishini o‘zbek o‘quvchisiga yetkazishga yordam bergan. Shu bilan birga, o‘zbek tilining tabiiy sintaktik talablari tufayli ba‘zi qisqa inglizcha jumlarlar biroz uzunlashtirilgan, natijada ritm va “iceberg theory”ning kuchliligi biroz zaiflashgan. Bu holat tarjimonning ijodiy mas‘uliyatini yana bir bor tasdiqlaydi: tarjimon nafaqat mazmunni, balki muallifning badiiy tafakkurini va estetik niyatini ham yangi til va madaniyat muhitida qayta yaratishi shart.

Tadqiqot natijalari zamonaviy tarjimashunoslikning asosiy xulosalarini tasdiqlaydi: muallif uslubini to‘liq saqlab qolish nazariy jihatdan imkonsiz, ammo uni maksimal darajada qayta tiklash tarjimonning professional mahorati, stilistik kompetensiyasi va madaniy o‘tkirlikiga bog‘liq. Tarjimon bu jarayonda “ikkinchi muallif” sifatida harakat qiladi, lekin asl matnga sodiqlikni birinchi o‘ringa qo‘yishi lozim. O‘rganilgan material shuni ko‘rsatdiki, tarjima sifati yuqori bo‘lsa-da, uslubiy nomuvofiqliklar (ayniqsa, leksik takror va jumlarlar uzunligi) hali ham mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish tarjima jarayonini yanada takomillashtirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References).

1. Clifford E. Landersning Literary Translation: A Practical Guide, 2001, Multilingual Matters. New Jersey City University. USA. 219 bet.
2. Tim Parks. Translating Style. Routledge. New York, USA. 2014 269 bet.
3. Jean Boase-Beier. Stylistic Approaches to Translation. St. Jerome Publishing / Routledge. New York, USA. 2006. 1364 bet.
4. G‘aybulla Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. O‘qituvchi. Toshkent. 1983. 232 bet.
5. Kuchkarova, M. A. Challenges in Preserving a Writer’s Style in Translation. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2026, 189–197 bet.

6. Kuchkarova, Mukhayyo Abduvakhob kizi. The Preservation of Authorial Style at the Pragmatic Level in Literary Translation. *International Journal of Artificial Intelligence*, 6(02), 2026. 117–125 bet.
7. Kurbanbayeva, Dilnoza. Stylistic Transformations in Preserving Author's Voice in English–Uzbek Literary Translation. *Modern Science and Research*, 2025. 430–432 bet.
8. Maulenberganova, Biybiayim Baxadurovna. The Importance of Maintaining the Author's Style in Literary Translation. Phoenix Publication, 2025. 230-432 bet.
9. Aripova, Kamola Yusupova. Badiiy tarjima jarayonida uslub va usullarning qo'llanilishi. *CyberLeninka yoki tegishli jurnal*. 2025.
10. Choriyeva, Shaxnoza Shuxratovna. Muallif uslubi va uni tarjimada aks ettirish usullari. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyasi materiallari. 2024.

Internet manbalari:

<https://conference.uzswlu.uz/conf/article/view/526>

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qator muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qator sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].